

# MAHSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI

29-11-156-XT/2022-  
СОН

2022 й. «9» 11

Қува туман

«Umarjon Bunyodbek» mas'uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida direktori E.Sobirov bir tomondan va ikkinchi tomondan Quva tumani Xalq talimi bo'limi (keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida raxbari N.Komilov quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

## 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq "Sotuvchi" "Buyurtmachi"ga quyidagi maxsulotlarni etkazib beradi:

№	Maxsulot nomi	o'lchov birligi	mikdori	narxi	kiymati
1	Pojarni shit	komplekt	34	2450000	83 300 000
					83 300 000

SHartnomaning umumiy qiymati: 83 300 000 (sakson uch million uch yuz ming) so'mni tashkil etadi.

## 1. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

1.1. Berilgan maxsulotlar uchun to'lov "BUYURTMACHI" tomonidan 30% oldindan amalga oshiriladi. "SOTIB OLUVCHI" to'lovlarni pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

## 3. Shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari

### 3.1. Sotuvchining huquqlari:

- sotilgan tovar haqini to'lashni;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olishni;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etishni;
- sotib oluvchi tomonidan o'ziga yetkazilgan zararlarining qoplanishini talab qilish.

Sotib oluvchi qonun hujjatlarida belgilangan asoslarsiz mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchidan tovarni qabul qilib olmagan yoki tovarni rad etgan hollarda mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchi sotib oluvchidan tovar haqini to'lashni talab qilishga haqli.

### 3.2. Sotuvchining majburiyatlari:

- tovarni sotib oluvchiga mulk qilib topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni sotib oluvchiga idishda yoki o'ralgan holda topshirish;
- tovarni sotib oluvchiga topshirgunga qadar saqlash.

### 3.3. Sotib oluvchining huquqlari:

- sotib olayotgan tovarni o'ziga mulk qilib topshirishni;

- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirishni;
- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirishni talab qilish.

#### 3.4. *Sotib oluvchining majburiyatlari:*

- sotib olgan tovar haqini o'z vaqtida to'lash;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olish;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etish;
- sotuvchiga yetkazilgan zararni qoplash.

Sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilishi shart.

### **4. Shartnoma bo'yicha javobgarlik**

4.1. Agar sotib oluvchiga uning talabiga ko'ra sotish joyida darhol tovar to'g'risidagi axborotni olish imkoni berilmagan yoxud uning tovarni ko'zdan kechirish, tovarning xossalarini tekshirish yoki tovardan foydalanishni ko'rsatishni talab qilish huquqi ta'minlanmagan bo'lsa, u chakana oldi-sotdi shartnomasini tuzishdan asossiz bosh tortilgani tufayli o'zi ko'rgan zararni to'lashni sotuvchidan talab qilishga, agar shartnoma tuzilgan bo'lsa, oqilona muddatda shartnomani bajarishdan bosh tortishga, tovar uchun to'langan summani qaytarishni va zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Sotib oluvchiga tovar to'g'risida tegishli axborot olish imkonini bermagan sotuvchi tovar sotib oluvchiga topshirilganidan so'ng tovarda paydo bo'lgan kamchiliklar uchun ham, agar sotib oluvchi bu kamchiliklar o'zida bunday axborot bo'lmagani sababli paydo bo'lganini isbotlasa, javobgar bo'ladi.

4.2. Agarda tovar sotib oluvchiga idishsiz va o'ramagan holda yoki tegishli idishga joylamagan va tegishli darajada o'ramagan holda topshirilgan taqdirda, sotib oluvchi sotuvchidan tovarni idishga joylashtirish va o'rashni yoxud tegishli bo'lmagan idish va o'rashni almashtirishni talab qilish yoki bu talablarni qo'yish o'rniga ushbu shartnomaning 4.3-bandi birinchi qismidagi talablarni qo'yishga haqli.

4.3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 434-moddasiga ko'ra sotib oluvchiga sifati tegishli darajada bo'lmagan tovar sotilganida, agar uning kamchiliklari shartnoma tuzish paytida ma'lum qilinmagan bo'lsa, sotib oluvchi o'z xohishiga ko'ra:

xuddi shu markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni;

xarid narxini tegishincha qayta hisoblagan holda boshqa markadagi (modeldagi, artikuldagi) sifati tegishli darajada bo'lgan tovarga almashtirishni;

tovarning kamchiliklarini tekinga bartaraf etishni yoki sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tomonidan tovarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun qilingan xarajatlar qoplanishini;

xarid narxini mutanosib ravishda kamaytirishni;

ko'rilgan zarar o'rnini qoplagan holda shartnoma bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Tovar uchun to'langan pul summasini sotib oluvchiga qaytarish vaqtda sotuvchi undan tovardan to'liq yoki qisman foydalanganligi, tovar ko'rinishi yo'qolganligi yoki boshqa shunga o'xshash holatlar tufayli tovar qiymati qancha pasaygan bo'lsa, shuncha summani ushlab qolishga haqli emas.

4.4. Sotuvchi shartnoma bo'yicha majburiyatni bajarmagan taqdirda, zararni qoplash va neustoyka to'lash sotuvchini majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

4.5. Agarda sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilmasa, sotuvchi shartlar buzilganligi natijasida kelib chiqadigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

4.6. Tovarlarini to'liq yetkazib bermaganlik yoki yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik uchun neustoyka penya shaklida undiriladi. Bunda penyaning miqdori har bir yetkazib berilmagan yoki yetkazib berish muddatlari buzilgan tovarlar umumiy summasining 1 (bir) % (foizi) miqdorida majburiyat amalda bajarilguniga qadar undiriladi.

4.7. Shartnomani bajarishdan bir tomonlama (to'liq yoki qisman) bosh tortishga tараflardan biri shartnomani jiddiy buzgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Shartnomani buzish quyidagi hollarda jiddiy deb topiladi:

- tegishli darajada sifatli bo'lmagan, sotib oluvchi uchun maqbul muddatda bartaraf qilib bo'lmaydigan kamchiliklarga ega bo'lgan tovarlarni yetkazib berish;
- tovarlarni yetkazib berish muddatlarini bir necha bor buzish.

4.8. Agar mahsulot yetkazib berish shartnomasini bekor qilish yoki o'zgartirishning boshqa muddati bildirish xatida nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnoma bir taraf boshqa tarafdin shartnomani bajarishdan to'la yoki qisman bir taraf lama bosh tortish to'g'risida bildirish xati olgan paytdin boshlab o'zgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

## 5. Fors-major holatlar

5.1. Mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchi fors-major holatlar (majburiyatlarni lozim darajada bajarish uchun to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmis kuch ta'siri: tovar yetkazilayotgan paytda sodir bo'lgan tasodifiy shikastlanish, sotib oluvchi egaligida suv tegishi natijasida tovarning yomon holatga kelishi va boshqa holatlar) natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

## 6. Taraflarning rekvizitlari

### Sotuvchi

«Umarjon Bunyodbek»

mas'uliyati cheklangan jamiyati

Manzili: Farg'ona viloyati Kuva

X/r: 2020 8000 1009 7501 0001

Bank: Quva AGROBANK

MFO:00529 STIR: 30600736

**Raxbar: E.Sobirov**

### Sotib oluvchi:

Quva tumani XTB

Manzili: Kuva tumani Adiblar kuchasi 3-uy  
X/R: 100022860302187092100075075

INN:200173674 OKNX: 97600 Moliya Vazirligi G'aznachiligi

Bank:Markaziy bank Toshkent shaxar

X/R:23402000300100001010

MFO:00014, STIR:201122919

**Raxbar: N.Komilov**

